
DIQQAT E'LON!!!

Hurmatli Qo'shtepa tumani axolisi hamda tumanimiz mehmonlari!

Qo'shtepa tumani hududida "Ramazon hayiti" bayramini ko'tarinki kayfiyatda, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlagan holda o'tkazish maqsadida hamda Qo'shtepa tuman IIBning 9.03.2024-yil kungi 40/1173-sonli xatini inobatga olib, Qo'shtepa tumani hududidan o'tuvchi 4R-147 "Marg'ilon-Oltiariq" avtomobil yo'lining Yangido'kon mahalla fuqarolar yig'ini B.Marg'iloniy ko'chasidan o'tgan 2 kmdagi "Ismoil Buxoriy" jome masjidi, Qumtepa mahalla fuqarolar yig'ini B.Marg'iloniy ko'chasidan o'tgan 4 kmdagi "Mo'yi Muborak" jome masjidi, 4R-127 "Marg'ilon-Yozyovon" avtomobil yo'lining Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini Mustaqillik ko'chasidan o'tgan 2 kmdagi "Abdusamad Oxun" jome masjidi, 4K-862 "Abay q. Katta Andijon kanali, Bo'rdoqichilik markazi" avtomobil yo'lining Katta Beshkapamahalla fuqarolar yig'ini Bog'imaydon ko'chasidan o'tgan 8 kmdagi "Muborak" jome masjidi, 4N-859 "Qumtepa q. Boltako'l q. Mehnatobod q." Avtomobil yo'lining Vatan mahalla fuqarolar yig'ini hududidan o'tgan 6 kmdagi "Salmon Forsiy" jome masjidi, 4K-864 "Marg'ilon temir yo'l stansiyasi, Qumtepa q. Qoraqushchi q. Oxunboboyev temir yo'l stansiyasi" avtomobil yo'lining Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini hududidan o'tgan 7 kmdagi "G'anijon Ota" jome masjidlarida Ramazon Hayit namozlari o'qilishi paytida piyodalar va transport vositalari xavfsizligini ta'minlash, piyodalarni avtomobil yo'lini kesib o'tishlari uchun qulayliklar yaratish maqsadida joriy yilning 10-aprel kuni soat 03:30 dan soat 8:00 gacha avtomobillarning harakati vaqtincha to'xtatilishini ma'lum qilamiz.

2024-04-09 08:13:35